



PROSPECTS FOR COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE UN HUMAN RIGHTS COMMITTEE

Bekmurodjon Karimov

Master's student

Academy of Law Enforcement Agencies of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: UN, Human Rights Committee, ICCPR, Optional Protocol, Periodic Reports, Concluding Observations, National Centre, individual complaints.

Received: 14.04.25

Accepted: 16.04.25

Published: 18.04.25

Abstract: This article is dedicated to highlighting the multifaceted and systematic cooperation of the Republic of Uzbekistan with the United Nations Human Rights Committee (UNHRC). It analyzes the reforms being carried out by Uzbekistan in the field of ensuring human rights, the measures taken to fulfill international obligations, as well as the main mechanisms related to the activities of the UN Human Rights Committee. In particular, the article thoroughly examines the issues of Uzbekistan's accession to the International Covenant on Civil and Political Rights (ICCPR) and its Optional Protocols, regular reports submitted by the state, concluding observations, and their consideration in national policy. It is also noted that Uzbekistan has included a representative in this committee, thereby strengthening its position in the international legal community. Within the framework of the article, the role of the committee in the international arena, its legal influence, and the changes taking place in Uzbekistan at the legislative and institutional levels as a result of the implementation of its recommendations are highlighted with important evidence. The results of the study show that Uzbekistan's efforts to ensure human rights serve not only domestic political stability, but also the strengthening of its international image.

BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA QO'MITASI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HAMKORLIGI ISTIQBOLLARI

Bekmurodjon Karimov

tinglovchi

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: BMT, Inson huquqlari bo'yicha qo'mita, ICCPR, Fakultativ protocol, Davriy hisobotlar, Yakuniy Xulosalar (concluding observations), Milliy Markaz, individual shikoyatlar.

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi (UNHRC) bilan olib borayotgan ko'p qirrali va tizimli hamkorligini yoritishga bag'ishlangan. Unda O'zbekiston tomonidan inson huquqlarini ta'minlash sohasida olib borilayotgan islohotlar, xalqaro majburiyatlarni bajarish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar, shuningdek, BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasining faoliyati bilan bog'liq asosiy mexanizmlar tahlil etilgan. Jumladan, maqolada Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICCPR) va uning Fakultativ protokollariga O'zbekistonning qo'shilishi, davlat tomonidan muntazam taqdim etilgan hisobotlar, yakuniy mulohazalar (concluding observations) va ularning milliy siyosatda inobatga olinishi masalalari chuqur o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekistonning mazkur qo'mitaga vakil kiritgani va bu orqali xalqaro huquqiy hamjamiyatda o'z o'rnini mustahkamlab borayotgani ta'kidlanadi. Maqola doirasida qo'mitaning xalqaro maydondagi roli, yuridik ta'siri, va tavsiyalarining bajarilishi natijasida O'zbekistonda qonunchilik va institutsional darajada qanday o'zgarishlar sodir bo'layotgani muhim dalillar orqali yoritilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning inson huquqlarini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlari nafaqat ichki siyosiy barqarorlikka, balki xalqaro imijning mustahkamlanishiga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

ПЕРСПЕКТИВЫ СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН С КОМИТЕТОМ ООН ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА

Бекмуроджон Каримов

Слушатель

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ООН, Комитет по правам человека, МПГПП, Факультативный протокол, Периодические отчеты, Заключительные наблюдения, Национальный центр, индивидуальные жалобы.

Аннотация: Данная статья посвящена освещению многопланового и системного сотрудничества Республики Узбекистан с Комитетом ООН по правам человека (КПЧ ООН). В нем проанализированы реформы, проводимые Узбекистаном в области прав человека, меры, принятые для выполнения международных обязательств, а также основные механизмы, связанные с деятельностью Комитета ООН по правам человека. В частности, в статье подробно рассматриваются вопросы присоединения Узбекистана к Международному пакту о гражданских и политических правах (МПГПП) и его Факультативным протоколам, регулярно представляемые государством отчеты, заключительные замечания (concluding observations) и их учет в национальной политике. Также отмечается, что Узбекистан ввел представителя в данный комитет и тем самым укрепляет свои позиции в международном правовом сообществе. В статье освещается роль комитета на международной арене, его юридическое влияние и изменения, происходящие в Узбекистане на законодательном и институциональном уровнях в результате реализации его рекомендаций. Результаты исследования показывают, что усилия Узбекистана по обеспечению прав человека служат не только внутренней политической стабильности, но и укреплению международного имиджа.

Inson huquqlari har qanday demokratik jamiyatning asosiy tayanchi hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi bu yo‘nalishda jadal islohotlar olib borib, inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi. Ayniqsa, mamlakatning BMT Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi bilan hamkorligi bu borada yuksak e‘tirofga sazovor bo‘lmoqda. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (ICCPR) va uning Fakultativ protokollariga qo‘shilish orqali O‘zbekiston xalqaro maydonda o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini izchil bajarib kelmoqda. 1995-yildan boshlab O‘zbekiston mazkur paktga a‘zo sifatida muntazam hisobotlar taqdim etib, BMT Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘ygan.

Tadqiqot doirasida O‘zbekiston va qo‘mita o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosi, amaliy mexanizmlari, shuningdek, xalqaro va milliy darajadagi yondashuvlar chuqur tahlil qilindi.

Qo'mita faoliyatining metodologik asosini Pakt va Fakultativ protokollar asosida tuzilgan monitoring tizimi tashkil etadi. Bunga davlatlarning hisobotlari, individual shikoyatlar, davlatlararo murojaatlar va tematik umumiy izohlar kiradi. O'zbekiston tomonidan taqdim etilgan davriy hisobotlar 1998, 2005, 2015 va 2020-yillarda ko'rib chiqilgan bo'lib, har birida milliy qonunchilik va amaliyotdagi yutuqlar bilan bir qatorda mavjud muammolar ham tahlil etilgan. Shuningdek, qo'mita tomonidan berilgan yakuniy tavsiyalarni bajarish yuzasidan O'zbekistonda Milliy harakatlar rejasi ishlab chiqilgan, "Yo'l xaritasi"lar belgilangan va tegishli qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi tavsiyalari O'zbekistonning inson huquqlari tizimida real islohotlarga turtki bo'layotgani aniqlanadi. Jumladan, qiynoqlarga qarshi kurashish, bolalar va majburiy mehnatga barham berish, sud tizimining mustaqilligini ta'minlash, gender tenglikni yuksaltirish, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish sohalarida sezilarli ijobiy natijalarga erishilgan. Bu islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilib, O'zbekiston imijining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston vakili – akademik Akmal Saidovning 2025–2028-yillarga mo'ljallangan davr uchun BMT Inson huquqlari qo'mitasi a'zoligiga saylangani mamlakat tarixida muhim voqea bo'ldi. Bu O'zbekistonning mintaqaviy yetakchi davlat sifatida xalqaro huquqiy institutlar bilan faol hamkorlik olib borayotganining isboti bo'lib xizmat qiladi.

BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi bilan hamkorlik O'zbekiston uchun nafaqat xalqaro majburiyat, balki milliy qonunchilikni takomillashtirishda amaliy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu hamkorlik orqali mamlakatda inson huquqlari madaniyati yuksalib, fuqarolarning huquqiy ongi va faolligi oshmoqda. Qo'mita tomonidan berilgan tavsiyalar asosida nafaqat qonunlar qabul qilinmoqda, balki ularning amalda qo'llanilishiga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Milliy institutlar, jumladan, Oliy sud, Bosh prokuratura, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz va boshqa tuzilmalar ishtirokida yirik konferensiyalar, parlament eshituvlari va monitoring tadbirlari tashkil etilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish va unga amal qilishni ta'minlash masalalari davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatning yetakchi yo'nalishlaridan biri sanaladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ning 96-maqsadida ***O'zbekistonning BMT organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish*** yuzasidan chora tadbirlar belgilangan bo'lib, ushbu chora tadbirlardan eng muhimlaridan biri bu BMTning *"Inson huquqlari yo'lida harakatga da'vat"* tashabbusini ilgari



surish uchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlikni davom ettirish yuzasidan islohotlar hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi BMT ning shartnomaviy va boshqa organlari bilan yaxshi hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'ygan va bu hamkorlikni kuchaytirish yuzasidan kechayu-kunduz ter to'kib mehnat qilinmoqda. Ushbu hamkorlik munosabatlarining tarixi va bugungi kunga qadar rivojlanish bosqichlari tahlil qilishdan avval BMT ning inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi, uning tashkil qilinishini, asosiy vazifa va funksiyalarini dastlab bilib olish muhim hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi (UNHRC) "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktning(International Covenant on Civil and Political Rights – ICCPR) o'z ishtirokchi davlatlari tomonidan bajarilishini nazorat qiluvchi 18 nafar mustaqil ekspertdan iborat organ hisoblanadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga dunyoning 173 davlati a'zo hisoblanib, mamlakatimiz ushbu hujjatga 1995-yilda qo'shilgan. Barcha ishtirokchi davlatlar Qo'mitaga fuqarolik va siyosiy huquqlar qanday amalga oshirilayotgani to'g'risida muntazam ravishda hisobotlar taqdim etishlari shart. Davlatlar dastlab Paktga qo'shilganidan keyin bir yil o'tgach, so'ngra Qo'mita talab qilganida hisobot berishlari kerak. Tahminiy ko'rib chiqish sikliga muvofiq, Qo'mita sakkiz yillik taqvim asosida hisobotni taqdim etishni so'raydi. Qo'mita har bir ma'ruzani o'rganib chiqadi va ishtirokchi davlatga o'z xavotirlari va tavsiyalarini "yakuniy mulohazalar" shaklida taqdim etadi.

Bundan tashqari, Paktning 41-moddasi Qo'mitaga davlatlararo shikoyatlarni ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Shaxslarning xalqaro maydonda o'z huquqlarining buzilishi ustidan shikoyat qilish imkoniyati inson huquqlari to'g'risidagi shartnomalardagi huquqlarga haqiqiy ma'no beradi. Inson huquqlari bo'yicha shartnomalar qoidalari buzilganligi to'g'risidagi shikoyatlarni inson huquqlari bo'yicha shartnoma organlariga yetkazishning uchta asosiy tartibi mavjud: 1)individual aloqalar; 2) davlatdan davlatga shikoyatlar; 3) so'rovlar.

Paktga qo'shimcha protokol Qo'mitaga Protokolda ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan Paktning buzilishi to'g'risidagi individual shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatini beradi. Har kim Qo'mitaga davlat ustidan shikoyat qilishi mumkin:

- Ya'ni buzilgan deb taxmin qilinayotgan huquqlarni nazarda tutuvchi mazkur shartnomaning (ratifikatsiya qilish yoki qo'shilish orqali) ishtirokchisi;

- U Qo'mitaning alohida shikoyatlarni ratifikatsiya qilish yoki Fakultativ protokolga qo'shilish orqali (MHXP, CEDAW, CRPD, ICESCR va CRC misolida) yoki Konvensiyaning maxsus moddasiga muvofiq bu haqda bayonot berish orqali (CERD, CAT, CED va CMW misolida) ko'rib chiqish vakolatini qabul qildi.

• Shikoyatlar jismoniy shaxslar nomidan uchinchi shaxslar tomonidan ham berilishi mumkin, bunda ular o'zlarining yozma roziliklarini bergan bo'lishlari shart (uning aniq shakli to'g'risida talab qo'yilmaydi). Ba'zi hollarda uchinchi shaxs bunday roziliksiz ish qo'zg'atishi mumkin, masalan, shaxs tashqi dunyoga kira olmaydigan qamoqxonada bo'lsa yoki majburiy yo'qolish qurboni bo'lsa.

Yuqoridagi norma, ya'ni ICCPR ga qo'shimcha protokol Qo'mitaga Protokolda ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan Paktning buzilishi to'g'risidagi individual shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatini berishi masalasi bizning mamlakatimizda ham amal qilishini tahlil qilsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ma'lumki, mamlakatimizning Inson huquqlarini ta'minlash borasida O'zbekiston Respublikasi 80 dan ortiq xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan bo'lib, bu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarishga sodiqligini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va uning birinchi Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilgan. Ushbu protokolga muvofiq, BMT Inson huquqlari qo'mitasi ushbu paktida nazarda tutilgan huquqlarning buzilishi holatlari bo'yicha shaxsiy shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lib, O'zbekiston ushbu vakolatni tan olgan. Protokol shuni nazarda tutadiki, agar fuqaro ishtirokchi-davlat (ya'ni O'zbekiston) tomonidan Paktida belgilangan huquqlari buzilgan deb hisoblayotgan bo'lsa va u mavjud barcha milliy himoya vositalaridan foydalanib bo'lgan bo'lsa, *BMT Inson huquqlari qo'mitasiga yozma murojaat bilan chiqish huquqiga ega*. Bunday murojaat – odatda “xabar” yoki “petitsiya” deb yuritiladi – belgilangan shaklda, imzolanib va tushunarli tilda bayon etilgan holda taqdim etilishi kerak.

Murojaatda murojaatchining shaxsiy ma'lumotlari (to'liq ism-sharifi, tug'ilgan sanasi, fuqaroligi, pochta va elektron manzillari) hamda qaysi davlatga qarshi murojaat qilinayotgani aniq ko'rsatilishi lozim. Aloqa ma'lumotlaridagi har qanday o'zgarishlar esa imkon qadar tez xabar qilinishi kerak. Bundan tashqari, murojaatda keltirilayotgan faktlar xronologik tartibda va to'liq ko'rsatilishi, mavjud barcha asosli dalillar bilan birga taqdim etilishi zarur. Shuningdek, murojaatchi avval foydalanilgan milliy huquqiy himoya vositalari haqida to'liq ma'lumot berishi, ya'ni davlat ichida ko'rilgan sud va boshqa organlar qarorlarini ham keltirishi shart.

BMT Inson huquqlari qo'mitasining shikoyat bo'yicha qabul qilgan qarorlari yuridik jihatdan majburiy bo'lmasa-da, ular xalqaro shartnomalar doirasida davlatlar uchun tavsiya etilgan talqinlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Agar qo'mita Pakt qoidalari buzilgan degan xulosaga kelsa, ishtirokchi-davlatdan 180 kun ichida tavsiyalarni bajarish bo'yicha amalga oshirilgan choralar yuzasidan axborot taqdim etishi so'raladi. Shu asosda, O'zbekiston fuqarolari agar Paktida belgilangan huquqlari buzilgan deb hisoblasalar, barcha ichki vositalardan foydalanilganidan so'ng BMT Inson huquqlari qo'mitasiga shikoyat bilan chiqish huquqiga egadirlar. Biroq, shikoyat ko'rib chiqilishi uchun u Fakultativ protokolda belgilangan muhim talablarni, jumladan, ichki

vositalardan to'liq foydalanilganini va murojaatning kechiktirmasdan – oqilona muddatda – taqdim etilganini tasdiqlashi kerak.

BMT Inson huquqlari qo'mitasiga O'zbekiston fuqarolari tomonidan yuborilgan individual murojaatlarning to'liq ro'yxati va tafsilotlari bilan <https://juris.ohchr.org/SearchResult> havola orqali tanishish ham mumkin.

Paktga Ikkinchi Fakultativ Protokolni qabul qilgan davlatlar tomonidan o'lim jazosini bekor qilish bilan bog'liq. Ushbu Protokolning preambula qismiga ko'ra ishtirok etuvchi davlatlar, o'lim jazosining bekor qilinishi inson qadr-qimmatini yuksaltirishga va inson huquqlarini izchil rivojlantirishga ko'maklashadi, deb hisoblab, 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasi va 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-moddasini eslatib, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-moddasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida so'z borganligini ta'kidlab, O'lim jazosini bekor qilishning barcha choralari yashash huquqini amalga oshirishdagi taraqqiyot sifatida ko'rib chiqish kerakligiga ishonch hosil qilib, Shu bilan o'lim jazosini bekor qilish bo'yicha xalqaro majburiyatni o'z zimmasiga olishni istab, ushbu protokolning barcha moddalariga rozilik bildirishadi.

Qo'mita, shuningdek, mavzuli masalalar yoki uning ish usullari bo'yicha umumiy sharhlar deb nomlanuvchi inson huquqlari qoidalarini mazmunining o'z talqinini e'lon qiladi. Qo'mita o'zining protsedura qoidalarining 76 va 77-qoidalariga muvofiq, ishtirokchi davlatlarga Pakt va uning Fakultativ protokollari bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda yordam berish maqsadida Pakt yoki uning Fakultativ protokollarining jihatlariga taalluqli muayyan mavzular bo'yicha umumiy izohlar tayyorlash va qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. 2021-yil sentabr holatiga ko'ra, Qo'mita tomonidan 37 ta umumiy mulohaza qabul qilingan. Yakuniy umumiy izohlarning to'liq ro'yxati ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lib, misol tariqasida 2020-yilning 17-sentabrida qabul qilingan Tinch yig'ilish huquqi to'g'risida umumiy izoh No 37 (2020) (21-modd) ni keltirish mumkin.

Qo'mita Jenevada yig'iladi va odatda yiliga uchta sessiya o'tkazadi. Hech bir mamlakatning fuqarolik va siyosiy huquqlarni himoya qilish va rag'batlantirish borasidagi faoliyati mukammal va tanqiddan xoli emas. Natijada, Qo'mitaning vazifasi har bir ishtirokchi davlatni:

1. Ushbu huquqlardan foydalanishni kuchaytiradigan qonunlar, siyosat va amaliyotlarni qo'llab-quvvatlash;
2. Pakt huquqlarini buzuvchi yoki yemiruvchi choralarni bekor qilish yoki tegishli o'zgartirishlar kiritish;
3. Ishtirokchi-davlat ushbu huquqlarni rag'batlantirish va himoya qilish uchun harakat qilmagan taqdirda tegishli ijobiy choralar ko'rish;

4. Ishtirokchi-davlat Pakt huquqlariga amaliy ta'sir ko'rsatishda orqaga qaytmasligini ta'minlash maqsadida joriy etishni taklif qilayotgan yangi qonunlar, siyosat va amaliyotlarning Pakt nuqtayi nazaridan ta'sirini tegishli tarzda ko'rib chiqishga rag'batlantiradi.

Qo'mitaning kuchli tomonlaridan biri uning a'zolari dunyoning barcha qismlarini ifodalashidan kelib chiqadigan axloqiy obro'dir. Qo'mita yagona geografik yoki milliy nuqtai nazarni ifodalash o'rniga global ovoz bilan gapiradi. Qo'mitaning ishi ko'plab mamlakatlarda fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanishni rag'batlantirishda haqiqiy ta'sir ko'rsatadi, garchi sabab va oqibat munosabatlarini aniqlash ba'zan qiyin bo'lsa ham. Tegishli ishtirokchi-davlatda manfaatdor shaxs uchun kompensatsiya to'lash, o'lim jazosini yengillashtirish, ishni yangidan ko'rib chiqish, muayyan hodisalarni tergov qilish yoki boshqa bir qator huquqiy himoya vositalari ko'rinishida ijobiy natijalarga olib keladigan yakka tartibdagi shikoyatning ko'plab holatlari mavjud.

Yillar davomida Qo'mita faoliyati natijasida qonunchilik, siyosat va amaliyotda ham umumiy milliy darajada, ham alohida holatlar kontekstida ko'plab o'zgarishlar yuz berdi. Shu sababli, to'g'ridan to'g'ri ma'noda, Qo'mitaning Paktga muvofiq unga yuklatilgan monitoring funksiyalarini bajarishi dunyoning barcha qismlaridagi mamlakatlarda shaxslarning hayotini yaxshiladi. Aynan shu ruhda Qo'mita o'z ishini barcha ishtirokchi davlatlar uchun dolzarb va qo'llanilishi mumkin bo'lgan qilishda davom etadi hamda Paktga kafolatlangan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan barcha odamlar tomonidan to'liq va kamsitishsiz foydalanilishiga intiladi.

Bevosita Inson huquqlari bo'yicha qo'mita bilan hamkorlik masalalariga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda ICCPR (Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt)ni ratifikatsiya qilib, inson huquqlarining fuqarolik va siyosiy jabhalardagi xalqaro standartlarini tan oldi. Bu bilan mamlakat Inson huquqlari bo'yicha qo'mita oldida muayyan xalqaro majburiyatlarni zimmasiga oldi. Ushbu paktga qo'shilishdan boshlab O'zbekiston doimiy ravishda Inson huquqlari bo'yicha qo'mita bilan muloqot yuritib, bir nechta davlat hisobotlarini taqdim etdi. 1998, 2005, 2015 va 2020-yillarda taqdim etilgan hisobotlarda fuqarolik huquqlari, sud tizimi, gender tengligi, din erkinligi, so'z erkinligi, qiynoqlarga qarshi kurash kabi masalalarga oid milliy qonunchilikdagi va amaliyotdagi yutuqlar va muammolar bayon etilgan.

O'zbekiston va BMT Inson huquqlari qo'mitasi o'rtasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri bu *Davlat hisobotlarini taqdim etish* hisoblanadi. Xususan, 2020-yilning 2-3-mart kunlarida bo'lib o'tgan BMT Inson huquqlari qo'mitasining 128-sessiyasida mamlakatimizning ICCPR qoidalarini bajarishi bo'yicha *Beshinchi davriy hisoboti* ko'rib chiqildi. Birlashgan Millatlar tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi ushbu Beshinchi davriy

hisobot yuzasidan yakuniy xulosasini taqdim qildi va unda o'zining ushbu hujjat ijrosi yuzasidan 26 ta takliflarini keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida ilk bor Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari masalalari bo'yicha qo'mita hamda Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi tomonidan BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga taqdim etilgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt doirasidagi O'zbekistonning Beshinchi davriy hisobotini muhokama qilish natijalariga bag'ishlangan parlament eshituvi videokonferensiya shaklida o'tkazildi. Mazkur eshituv davomida rasmiy delegatsiya vakillari Jenevada o'tgan konferensiya bo'yicha o'z taassurotlari bilan bo'lishdilar.

Uchrashuvda Qonunchilik palatasi deputatlari bilan bir qatorda, Oliy sud, Bosh prokuratura, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Markaziy saylov komissiyasi, Bolalar va Biznes ombudsmanlari, BMTning O'zbekistondagi doimiy vakili, AQSh elchisi, YEXHTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Milliy markazi hamda turli xalqaro va nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari ishtirok etdilar.

Eshituv davomida BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yo'lida olib borilayotgan tizimli islohotlar yuqori baholangani ta'kidlandi. Xususan, sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash, bolalar va majburiy mehnatga barham berish, korrupsiyaga qarshi kurashish va fuqarolik jamiyatining ahamiyatini oshirish kabi yo'nalishlarda erishilgan yutuqlar ijobiy baholandi. Shuningdek, hisobot davrida fuqarolik va siyosiy huquqlar sohasida milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga uyg'unlashtirilishi bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ham e'tirof etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu boradagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun va Davlat dasturi mazkur siyosatning amaliy ifodasidir. Bundan tashqari, mamlakat Stambul harakatlar rejasi doirasida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan hamkorlikni davom ettirmoqda.

Eshituvda, shuningdek, penitensiar tizimni isloh qilish, yarashtiruv institutini joriy etish, erkinlikdan mahrum etish jazosi o'rniga muqobil jazo choralarini qo'llash, sobiq mahkumlarni jamiyatga moslashtirishda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining ishtirokini kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. Ayniqsa, Jasliqdagi jazoni ijro etish muassasasining yopilishi Qo'mita tomonidan ijobiy baholandi. Beshinchi davriy hisobot doirasida ayollar huquqlarini ta'minlash, gender tenglikni ilgari surish, onalik va bolalikni himoya qilish, oila institutini mustahkamlash borasidagi qonun loyihalarining ekspertizasi orqali Qo'mitaning ilgari bergan tavsiyalarining ijrosi ta'minlangani yuksak bahoga sazovor bo'ldi. Videokonferensiyada

ishtirokchilar BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasining O'zbekiston bo'yicha Beshinchi davriy hisobotni tahlil qilishi yuzasidan muhim fikr-mulohazalar bildirdilar. Muhokamalar yakunida BMT tavsiyalari asosida milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish, keng jamoatchilikni doimiy ravishda xabardor qilish hamda BMT tuzilmalari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Ushbu hamkorlikning yana bir asosiy yo'nalishlaridan biri bu Inson huquqlari qo'mitasi taqdim qilgan *yakuniy tavsiyalarni (concluding observations) amalga oshirish* hisoblanadi. Amaliy misol tariqasida shuni keltirish mumkinki, yuqorida tahlil qilingan Beshinchi davriy dastur yuzasidan berilgan 26 ta taklif va tavsiyalarga amal qilish yuzasidan ishlar olib borildi. Jumladan, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markza tomonidan ICCPR bajarilishi yuzasidan Beshinchi davriy hisobotning yakuniy xulosalaridagi tavsiyalarni bajarish maqsadida *Milliy harakatlar rejasi* ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020 yildagi PF-6012-son Farmoni bilan tasdiqlangan ***Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"*** belgilangan. Ushbu yo'l xaritasida Shaxsiy va siyosiy huquqlarni himoya qilish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar keltirilgan bo'lib, Ushbu bo'limning **14-bandida** Sudlanuvchilarni sud zalida bo'lishlari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida ***BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi tavsiyalarini inobatga olgan holda sud zalida temir panjaralardan foydalanish tartibini qayta ko'rib chiqish*** yuzasidan Oliy sud, IIV, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz tomonidan Normativ-huquqiy hujjat loyihasi tayyorlanishi belgilab berildi.



Hamkorlikning yana bir ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida *BMT inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi a'zolidagi ishtirok etishni* ham keltirish mumkin. 2024-yilning 29-may sanasida BMT ning Nyu-Yorkda joylashgan qarorgohida ICCPR ga a'zo davlatlarning 40-sessiyasi doirasida, 2025-2028-yillar uchun qo'mitaning 9 nafar yangi a'zosini saylash bo'yicha yashirin ovoz berish amalga oshirildi. Ushbu jarayonda O'zbekiston bilan birga yana 16 davlat nomzodlari kurash olib bordi. Natijalarga ko'ra, akademik Akmal Saidov eng ko'p ovoz to'plab, paktga a'zo mamlakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Akademik Akmal Saidov – Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori – 2025-2028-yillar uchun BMT Inson huquqlari qo'mitasi a'zolidiga saylandi. Bu O'zbekiston uchun tarixiy ahamiyatga ega voqea bo'lib, mamlakatimiz ushbu nufuzli xalqaro tuzilma tarkibiga ilk bor vakilini kiritdi.

Ommaviy axborot vositalarida bu saylov O'zbekiston uchun muhim bosqich sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida BMT Inson huquqlari qo'mitasiga saylangan

birinchi davlat bo'ldi. Bu yutuq mamlakatimizning xalqaro maydondagi mavqei ortib borayotganining yana bir isboti sifatida qaralmoqda.

BMT tomonidan e'tirof etilishicha, O'zbekiston Prezidentining yetakchiligida amalga oshirilgan islohotlar – bolalar va majburiy mehnatga chek qo'yish, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish, gender tengligini ta'minlash, ayollar huquqlarini kengaytirish va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash borasida erishilgan ijobiy natijalar bu tanlovda muhim rol o'ynadi. Bundan tashqari, O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha xalqaro kun tartibidagi masalalarda ochiq va konstruktiv muloqotga tayyorligi ham alohida qadrlanmoqda.

O'zbekistonning BMT Inson huquqlari qo'mitasiga a'zoligi mamlakatimizning inson huquqlarini ta'minlash borasidagi xalqaro majburiyatlarga sodiqligini namoyon etadi. Shu bilan birga, bu a'zolik O'zbekiston vakiliga xalqaro darajadagi muhim qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy tizimga tatbiq etish imkonini yaratadi.

Xusola o'rnida aytishimiz mumkinki, yuqoridagi ishda mamlakatimiz hamda BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi hamkorligining asosiy yo'nalishlari, *davlat hisobotlarini taqdim etish*, Inson huquqlari qo'mitasi taqdim qilgan *yakuniy tavsiyalarni (concluding observations) amalga oshirish*, *BMT inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi a'zolidagi ishtirok etish masalalari atroflicha tahlil qilindi*. O'zbekiston Respublikasi va BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi o'rtasidagi hamkorlik davlatning xalqaro huquqiy maydonda faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi. Ushbu hamkorlik nafaqat xalqaro majburiyatlarni bajarish, balki milliy qonunchilikni takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishda ham muhim rol o'ynamoqda. O'zbekistonning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitadagi ishtiroki esa xalqaro miqyosda respublikaning obro'-e'tiborini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda ushbu hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash, shuningdek, fuqarolarni xalqaro huquqiy mexanizmlar orqali o'z huquqlarini himoya qilishga undash O'zbekistonning barqaror va demokratik taraqqiyot yo'lidan borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ning 96-maqsadi. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.06.2020 yildagi PF-6012-son Farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" 14-bandi. <https://lex.uz/ru/docs/-4872355>
3. Introduction to the Committee. <https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/ccpr/introduction-committee>

4. Complaining about human rights violations. <https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/complaints-about-human-rights-violations>;
5. Individual xabarnomalar. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/individual-habarnomalar>
6. Second Optional Protocol to the International Covenant on Civil and Political Rights, aiming at the abolition of the death penalty. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/second-optional-protocol-international-covenant-civil-and>;
7. General comments. <https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/ccpr/general-comments>
8. General comment No. 37 (2020) on the right of peaceful assembly (article 21) <https://docs.un.org/en/CCPR/C/GC/37>;
9. Fact Sheet No. 15 (Rev.1). Civil and Political Rights: The Human Rights Committee. <https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/Publications/FactSheet15rev.1en.pdf>;
10. Inson huquqlari qo‘mitasi. <http://nhrc.uz/en/menu/inson-uulari-mitasi>;
11. BMT Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasining yuksak e’tirofi. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/bmt-inson-huquqlari-boyicha-qomitasining-yuksak-etirofi>;
12. O‘zbekiston vakili tarixda ilk bor BMTning Inson huquqlari qo‘mitasi a’ziligiga saylandi. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m13287>.